

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)  
**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 4 (5) – 2025*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

## **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

#### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Maxmudov Mansurjon Abdug‘opporovich*

TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O‘RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN

OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR ..... 12-17

*Qurbonov Xurshid Raupovich*

O‘ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN

“MEHNAT ARMIYACHILARI” VA ULARNING TA‘MINOTI ..... 18-22

*Salayev Fazliddin Shamsiddin o‘g‘li*

O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI ..... 23-28

*Abbasov Behzod Baxtiyorovich*

FARG‘ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO‘JALIKLARDA IJTIMOIIY

MUAMMOLAR VA KO‘CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI

(1946-1965)..... 29-35

*Mirzaliyev Ulug‘bek, Klichev Ulug‘bek*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR ..... 36-39

*Tursunova Gavhar Begmuradovna*

ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN

MA‘MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI

(XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) ..... 40-50

*Vaxobov Doston Abdumannob o‘g‘li*

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG‘LIQNI SAQLASH

XODIMLARINING G‘ALABAGA QO‘SHGAN HISSASI ..... 51-54

*Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi*

O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA‘LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR

(1991-2024 yy)..... 55-59

*Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich*

QUYI SIRDARYOBO‘YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK

TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI ..... 60-64

*Yo‘ldosheva Gulbahor Nuriddinovna*

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘RTA UMUMTA‘LIM MAKTABLARINING

AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI

(QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)..... 65-69

*Mardiyeva Guzal Karimovna*

XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI

ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI ..... 70-75

*Narziyev Rustambek Xaydarovich*

HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN

YARATILGAN IMKONIYATLAR ..... 76-80

|                                                                                                                                      |       |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i><br>XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING<br>IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI ..... | 81-87 |
| <i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i><br>O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA<br>IPAKCHILIKNING O'RNI .....          | 88-92 |
| <i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i><br>O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI .....                    | 93-99 |

## **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

|                                                                                                                                                                                                                  |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i><br>BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI<br>RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI .....                                                  | 100-116 |
| <i>Юлдашева Надира Викторовна</i><br>«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:<br>ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....                                                                      | 117-123 |
| <i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i><br>ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH .....                                                                                                    | 124-128 |
| <i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i><br>TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI<br>FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH .....                                                                | 129-135 |
| <i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i><br>SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI<br>VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....                                                                                        | 136-145 |
| <i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i><br>XORIJYI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA<br>KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI TAHLILI<br>(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA) ..... | 146-159 |
| <i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i><br>O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA<br>INSON KAPITALINING TA'SIRI .....                                                                                 | 160-164 |
| <i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i><br>“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH ....                                                                                           | 165-169 |

## **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

|                                                                                                                               |         |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Komilov Ro'zi Rabiyeovich</i><br>OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY<br>OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI ..... | 170-172 |
| <i>Хакимов Эркин</i><br>ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ<br>МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ .....           | 173-180 |
| <i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i><br>SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI.....                                                | 181-185 |
| <i>Karimov Yo'ldosh Ergashevich</i><br>TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI .....                | 186-191 |

|                                                                                                                                                       |         |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Агзамходжаева Шахноза Саидматмабевна</i><br>О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ<br>СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ)..... | 192-195 |
| <i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i><br>ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....                                            | 197-204 |
| <i>Evatov Salimjon</i><br>MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFY TAFAKKUR RIVOJI:<br>IX-XII ASRLAR MEROSI .....                                                   | 205-209 |
| <i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i><br>ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI .....                                                       | 210-213 |
| <i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i><br>IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI<br>OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI .....        | 214-217 |
| <i>Kunisheva Nadira Julanovna</i><br>"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING<br>ILMIY-NAZARIY MASALALARI .....                        | 218-223 |
| <i>Eshpulatov Inoyat</i><br>FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT<br>VA MA'NAVIY MUHIT .....                                        | 224-231 |
| <b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>                                                                                                                  |         |
| <i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i><br>O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY<br>SHAKLLANISHI .....                                     | 232-236 |
| <i>Алиева Эльвина Аметовна</i><br>ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ<br>С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ .....      | 237-243 |
| <i>Usmanova Sevara</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY<br>HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA.....                                               | 244-251 |
| <i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i><br>MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI .....                                                     | 252-260 |
| <i>Daminova Rahima Malikovna</i><br>ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....                                                                          | 261-266 |
| <i>Yusupov Asror</i><br>PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK<br>BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV .....                    | 267-271 |
| <i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i><br>VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR<br>TADQIQOTLARI .....                                      | 272-276 |
| <i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i><br>COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION.....                                          | 277-281 |
| <i>Sirojiddinova Shakhribonu</i><br>THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS.....                                                       | 282-285 |

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Xodjiev Yunus Muxitdinovich*

DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR  
TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 286-292

*Wang Cong*

RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION ..... 293-300

*Лу Адук*

К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ  
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ..... 301-310

*Abdurashidova Zarina Turg'un qizi*

FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING  
NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI ..... 311-315

*Axmatov Olimjon Odilovich*

“KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF  
RAVISHDA Olish, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY  
XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI Olishda SUN'IY INTELLEKTNING  
O'RNI” ..... 316-322

*Xatamov To'liqin Tojiddinovich*

KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI  
TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING  
NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI ..... 323-329

*Kuchimova Shaxlo*

VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI ..... 330-337

*O'rinova Dilshoda Adhamovna*

OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI  
HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDAGI AYOLLAR JABRLANISHINI  
OLDINI Olish BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI ..... 338-347

*Geng Zhimin*

RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT..... 348-351

*Xidirov Mexroj Qilich o'g'li*

ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK  
JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON  
BERUVCHI OMILLAR ..... 352-357

*Тулаганов Элмурод*

ВОПРОСЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ  
ТРАНСФОРМАЦИИ ..... 358-367

*Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon*

DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI  
SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI ..... 368-374

*Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li*

JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING  
IJTIMOIY XAVFLILIGI ..... 375-382

|                                                                                                                                                                                          |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i><br>DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI,<br>AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR .....                                       | 383-392 |
| <i>Kamilov Oybek</i><br>O'ZBEKISTONNING MIGRATSIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR<br>VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI .....                           | 393-402 |
| <i>Абборова Камола Саидмухторовна</i><br>ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА<br>ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И<br>ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ .....       | 403-410 |
| <i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i><br>RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID<br>DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) .....                        | 411-418 |
| <i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i><br>"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'IY INTELLEKTNI INTEGRATSIYA<br>QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI" .....                                 | 419-427 |
| <i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i><br>INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR .....                                                                              | 428-432 |
| <i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i><br>VALYUTA QIMMATLIKLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH<br>BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK<br>ASOSLARI ..... | 433-441 |
| <i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i><br>KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA<br>INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY<br>JIHATLARI .....                  | 442-448 |
| <i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i><br>YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOY-IQTISODIY FAOLIYATIGA<br>TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI .....          | 449-457 |
| <i>Mansurov Arslon Askarovich</i><br>"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI<br>HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI .....                   | 458-463 |

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

|                                                                                                                                                                                                        |         |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i><br>"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY<br>MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI .....                                                | 464-470 |
| <i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i><br>EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM<br>MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR .....                        | 471-475 |
| <i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i><br>BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI<br>LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION<br>YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR ..... | 476-481 |

|                                                                                                                                                                                                       |         |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i><br>ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY<br>TUZILISHI.....                                                                                | 482-485 |
| <i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i><br>FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYYATI .....                                                                                                          | 486-491 |
| <i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i><br>TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK<br>MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM<br>MENEJMENTINING O'RNI ..... | 492-496 |
| <i>Раббимова Нодира Таштемировна</i><br>ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ<br>ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ .....                                                              | 497-501 |

**Received:** 16 March 2025

**Accepted:** 5 April 2025

**Published:** 15 April 2025

*Article / Original Paper*

## **THE ROLE OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN THE SAMARKAND REGION IN THE 1950S-1980S**

**Mardiyeva Guzal Karimovna**

Researcher at Samarkand State University

Assistant at Samarkand State Medical University

**Abstract.** This article discusses the role of higher education institutions in the Samarkand region in training female personnel after World War II, the scientific activities of women working in these educational institutions and their contribution to science.

**Keywords:** female personnel, science, scientific work, research, university, professors and teachers.

## **XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI**

**Mardiyeva Guzal Karimovna**

Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushidan so'ng Samarqand viloyati hududidagi oliy ta'lim dargohlarini xotin-qiz kadrlar tayyorlashdagi o'rni, ushbu ta'lim muassasalarida faoliyat yuritgan xotin-qizlarning ilmiy faoliyati va ilm-fanga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** xotin-qiz kadrlar, ilm-fan, ilmiy ish, tadqiqot, universitet, professor - o'qituvchilar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N12>

Urush yillarida barcha sohaning front uchun yo'naltirilishi oqibatida ilm-fan sohasi vakillari ham asosiy e'tiborini urush uchun kerakli masalalarga qaratdi. Ba'zi holatlarda oliy ta'lim muassasalari vaqtinchalik o'z faoliyatini to'xtatib turishga majbur bo'ldi. Urush tugagandan so'ng zudlik oliy ta'lim va ilm-fan sohasidagi ishlarni yaxshilash uchun tegishli chora-tadbirlar ko'rish ishlari boshlandi. Xususan, 1945-yil sentyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston KP (b) MKning XII plenumida xalq maorifi ishini yaxshilash va respublika oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash chora-tadbirlari tinglandi va muhokama qilindi. Plenumda maktablar ishida, malakali kadrlar tayyorlashda haligacha jiddiy kamchiliklar bartaraf etilmagani, bundan keyin bunga yo'l qo'yib bo'lmasligi ta'kidlandi. Oliy ta'lim muassasalari faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilib, xalq xo'jaligi sohalari uchun kerakli kadrlar tayyorlash va ularga mahalliy aholini keng miqyosda jalb qilish talab etildi. Shu sababdan Respublikaning barcha hududlaridagi oliy o'quv yurtlarida xotin-qizlarning, ayniqsa mahalliy millatga mansub ayol kadrlar tayyorlashga hamda ilm-fan rivojida ayollarning ham hissasini oshirishga e'tibor berila boshladi. Xususan, Samarqand viloyatidagi bilim yurtlari ham bundan mustasno emasdi. 1948-yili Samarqand o'qituvchilar pedagogika institutining kunduzgi bo'limida 99 nafar, kechki

bo'limida 72 nafar ayollar[2; 21-b], 1948/49 o'quv yilida Samarqand davlat universitetda 471 nafar ayol tahsil oldi.[8;18-b]

Ushbu yillarda xotin-qizlarning ilm-fan sohasidagi ulushi ham yildan-yilga oshib borardi. Samarqand davlat universiteti respublikada kadrlar tayyorlash va ilmiy xodimlar tayyorlashda ham o'z o'rniga ega edi. Universitetda 1927-yildan 1961-yilgacha jami 250 dan ortiq tadqiqotchilar nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildilar. Birgina 1963-yilda aspiranturada 139 kishi, jumladan, 33 nafar (23,7%) ayollar tahsil olgan edilar.[8; 19-b]

Ushbu yillarda O'zbekiston respublikasida xotin-qizlardan ko'plab davlat arboblari, olimlar, o'qituvchilar, shifokorlar, qishloq xo'jaligining mirishkori va boshqa yuzlab kasblarning mohir ustalari yetishib chiqqan. O'qituvchilar o'rtasida xotin-qizlar o'ttiz mingga yaqin kishini tashkil etadi. Xotin-qiz o'qituvchilardan 336 nafar o'zbek o'qituvchi ayoli SSSR orden va medallari bilan mukofotlangan. 97 nafar o'zbek xotin-qiz o'qituvchisi respublikada xizmat ko'rsatgan o'qituvchi degan faxrli unvonga ega bo'lgan.

Yuzlab, minglab xotin-qizlar faxrli ishda-kishilarning sog'ligini saqlash ishida xizmat qilganlar. 1958-yilda O'zbekiston sog'liqni saqlash vazirligi sistemasida 400 dan ortiq o'zbek xotin-qizlari ishlasalar, minglar o'zbek xotin-qizlari Respublika meditsina institutlarida tahsil olganlar. O'zbek xotin-qizlaridan 18 kishiga respublikada xizmat ko'rsatgan shifokor unvoni berilgan. 54 nafar o'zbek ayoli tibbiyot ilmiy-tekshirish muassasalarida ishlardilar; ulardan 2 kishi fan doktori, 13 kishi fan nomzodidir.

O'zbekiston xotin-qizlari o'rtasida fanning barcha sohalari bo'yicha olimlar yetishib chiqqan. Chunonchi, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi Muqaddas G'aniyeva, biologiya fanlar nomzodi Mukarram Orifjonova, tarix fanlar nomzodi Matluba Obidova, fizika-matematika fanlari nomzodi Ma'suda Sultonova kabi olimlar shular jumlasidandir. Respublikada barcha xotin-qizlardan 14 kishi fan doktori, 400 dan ortiq kishi fan nomzodligiga ega bo'lgan. [1;7-mart]

1963/1964-yillarda SamDUda ilmiy xodimlar soni 426 kishini tashkil etdi. 1964-yilda 140 nafar ayol o'qituvchi bo'lib, shundan 35 nafari mahalliy millat vakillari edi, 12 nafari ilmiy darajaga ega edi (ilmiy salohiyat 9,1%). [4;8-b]

Universitet jamoasi orasida xotin-qizlarning soni ortib bordi. 1967-yil yanvar oyida professor-o'qituvchilar soni 575 kishiga ko'paydi, shundan xotin-qizlar 220 nafar, jumladan, 91 nafari o'zbeklar edi. Universitet professor-o'qituvchilari orasida 23 nafar ayol dotsent va fan nomzodlari bor edi. Universitet o'z faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab mahalliy aholi ayollari uchun o'z eshiklarini keng ochdi. Ularning ko'pchiligi o'qishni tamomlab, ko'zga ko'ringan olima va jamoat arbobi bo'ldi. Birinchi bo'lib nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan va fan nomzodi ilmiy darajasiga tasdiqlangan o'zbek ayollari orasida Samarqand universiteti talabalari: fizika-matematika fanlari nomzodi N.Tishabayeva, filologiya fanlari nomzodi Saida Narzullayeva, O'zSSR Fanlar Akademiyasi muxbir a'zosi X.Komilovalar. Keyinchalik universitetning ko'plab talabalari doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar: M.Ya.Abdurahimova, X.Ayniy, K.Ahmedjonova, M.Oxunova, S.Ismailova, T. Majidova, X.Muqimova, M.Negmatova, va S.Ismeva. Universitetda M.Ostanova, X.Rashidova, F.Xaydarova, S.Xasanovalar.[9; 51-b]

Yana bir olimaning muhim ishlaridan 1945-yilda universitet qayta tiklanganidan so'ng dots.S.S.Abaeva rahbarligida g'o'zaning gulchaglarning unib chiqishi va meva hosil bo'lishiga borning ta'siri o'rganildi. Borni chigit unumdorligini oshirish va paxta chigitining sifatini

yaxshilash uchun foydalanish mumkinligi aniqlandi. G'ozani bargdan oziqlantirish usuli, unib chiqish bosqichidan boshlab, qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashish chora-tadbirlari bilan birgalikda tavsiya etildi. 1950-1952-yillarda S.S.Abaeva, L.I.Shelamovlar boshqa mikroelement marganesning paxta uchun ahamiyati o'rgandi.

1977-yilda universitet professor-o'qituvchilar orasida xotin-qizlardan 32 nafar fan nomzodi va 6 nafar kafedra mudirlari faoliyat ko'rsatgan. Xususan, X.Xaydarova, X.Rashidova, A.N.Timonina, X.A., prof. Yu. Avaliani Xorijiy Sharq tillari va adabiyoti kafedrasini mudiri, dots. Ts.G.Bronshteyn Qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashning biologik usullari muammoli laboratoriyasi mudirasi, dots.M.M.Ostanova universitetning biologiya fakulteti dekani lavozimlarida ishlashardi. 136 nafardan ortiq o'qituvchi xotin-qizlar fanning turli yo'nalishlari bo'yicha qizg'in ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. [9; 198-b]

Universitetning fidoyi olimlaridan yana biri Mairimova Mohira Samatovna 1973-yilda Samarqand davlat universitetining tarix fakultetiga o'qishga kirdi. Universitetni bitirgach falsafa kafedrasida ish faoliyatini davom ettirdi. Mohira Samatova 1982-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Avanesova Nona Armaisovna 1967-yilda Samarqand davlat universitetining tarix fakultetini bitirib, shu yil dekabrda Leningraddagi davlat Ermitaji restavratsiya ustaxonasiga stajirovkaga yuborilgan. Shundan so'ng "Andron madaniy birligi tarixi muammolari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya, Hasanova Kibriyo 1990-yilda "Некоторые проблемы совершенствования интернационального воспитания студентов в процессе изучения литературы" mavzusidagi dissertatsiya ishi, 1977-yilda Abdusaidova Gulchehra "Ilk va hozirgi zamon islomning xotin-qizlarga, oila va urf-odatlarga munosabati" mavzusidagi nomzodlik ishi, 1987-yilda Vafayeva Jamila Bakiyevna falsafa sohasida nomzodlik ishi bilan, Istamova Marhabat "Samarqand shevasidagi tikuvchilik leksikasi" mavzusidagi, Tursunova Mahkamoy Tursunovna 1983-yilda "XVII-XIX asrlar o'zbek adbiyoti tarixini o'rganish metodikasi" mavzusidagi nomzodlik ishi bilan ijtimoiy fanlar rivojiga o'z hissalarini qo'shdi. [5;5-21-b]

Tabiiy fanlar sohasida To'rayeva Dilbar Akmalovna "Piridin asoslarining N-oksidlari aromatik ketonlarining metalketillari va diannionlari bilan reaksiyalari" mavzusidagi ilmiy ishi bilan, Kabulova Adolat Djabborovna "Ba'zi kserofil o'simliklarining qurg'oqchilikka chidamliligi" mavzusidagi, Axmedova Guljaxon 1981-yilda "Atrof-muhit namunalari radioaktivligini tekshirish" mavzusidagi ilmiy ishi bilan, Maxmudova Zaxro Vaxobovna 1969-yilda professor P.K.Soldatov rahbarligida genetika sohasida, ya'ni atrof muhitda taralgan antropogen omillarning mutagen ta'sirini turli test-sistemalar yordamida baholash nomli ilmiy ishi bilan, Kabulova Flora Djabborovna Zarafshon vodiysidagi dengiz itshimurtining shakl xilma-xilligi va ayrim biologik xususiyatlari mavzusida ilmiy izlanishlari bilan, Alimova Munavvar "Tabiiy va fiziologik aktiv moddalar kimyosi" mutaxassisligi bo'yicha "Fumarta va Corydalis alkaloidlari" mavzusidagi ilmiy izlanishlari bilan ilm-fan rivojiga o'z hissalarini qo'shishgan. [5;41-68-b]

Shuningdek, Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat universiteti ko'plab oliy ma'lumotli xotin-qiz kadrlar tayyorlab chiqardi. Universitetni muvaffaqiyatli tamomlagan yuzlab talabalar o'qituvchilik, ilmiy xodimlik lavozimlarida xizmat qilardilar. Respublikada xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Hamroxon To'rayeva, Muyassar Maxmudova, urgutlik Hamidova, samarqandlik Marhabo Zohidova, Fotima Ikromova va boshqalar universitetda olgan bilimlari bilan xalq ta'lim sohasini rivojlanishida munosib o'rinlariga ega edilar.

Universitetda tahsil olgan ko'plab xotin-qiz mutaxassislar fanlar akademiyasi, ilmiy tekshirish institutlarida ishlab, xalq xo'jaligini kompleks rivojlantirish masalalarida faol qatnashganlar. Toshkent teatr institutini dotsenti Saida Narzullayeva, O'rta Osiyo universitetining dotsenti Teshaboyeva, O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining correspondent a'zosi Komilova, Tojikiston SSR Fanlar akademiyasining ilmiy xodimi biologiya fanlar nomzodi Mastura Ikromovalarning ilmiy tadqiqot ishlari respublikamizdan tashqarida ham ma'lum bo'lgan.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining deputatlari Mamatova, Ibrohimov, kasaba uyushmasi viloyat sovetining raisi Mirmuhamedova, respublika madaniyat vaziri o'rinbosari Asliddinova, Samarqand shahar ijroqo'mining raisi Olchinboyeva, Samarqand shahar partiya komiteti sekretari Odilovalar O'zbekiston davlat universitetida tahsil olishgan. [2; 8-mart]

Viloyatdagi yana bir oliy ta'lim dargohlaridan biri Samarqand davlat tibbiyot institutida ham ushbu yillarda xotin-qizlar o'zlarining fidokorona mehnatlari bilan ilm-fan rivojiga munosib hissalarini qo'shib kelishgan. Xususan, Vahobovna O'ktam Karimovna 1950-yilda ushbu universitetni imtiyozli diplom bilan tugatib, 1957-yilda "Qon kasalliklarida me'da osti bezining funksional holati" mavzusidagi tibbiyot fanlar nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ilm-fanga qiziqishi zo'r bo'lgan olim izlanishlarini davom ettirgan. 1972-yilda akademik E.M.Tarayev rahbarligida "O'zbekiston Respublikasining Samarqand viloyatida yurak ishemik [7;8-b] kasalligida epidemiologik, klinik va eksperimental tekshirishlar" mavzusidagi tibbiyot fanlar doktorligi ilmiy dissertatsiyasini himoya qilgan. Ushbu ilmiy dargohning olimalaridan Blinova Sofiya Anatolevna gistologiya, sitologiya va embriologiya sohaslarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, "Nafas olish tizimi a'zolarini boshqarilishining normada, tajribada va patologiya holatida tuzilishi ahamiyati" mavzusidagi doktorlik ishi, Ibadova Dilbar Negmatovna sobiq ittifoqda birinchilardan bo'lib, klinik farmakologiya sohasida ilmiy ishini himoyasi bilan, Abdullayeva Muxiba Nigmatovna "Issiq iqlim sharoitida to'yib ovqatlanmaslik fonida o'tkir pnevmoniya bilan og'rigan yosh bolalarda proteolitik fermentlar, aldolaz va aminotransferazalarning faolligidagi o'zgarishlarning klinik xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy ishi bilan, Yaqubova Andjella Norovna "Onalik va bolalikni muhofaza qilish" sohasida ilmiy ishi, Raxmanova Gulnora Egamnazarova kardiologiya fanida immunologik muammolar bo'yicha ilmiy izlanishlari, Latipova Viloyat Gulyamovna "Meda va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligida klinik va immunologik o'zgarishlar" ilmiy ishi bilan, Qudratova Gulsara Najmiddinovna "Kamqon bolalarda oshqozonning sekreter-fermentativ holati", Amriddinova Shavkiya Amankulovna miopiya muammosi bo'yicha ilmiy olib borib "Boshlang'ich miopiyaning klinik xususiyatlari va rivojlanishida fizikaviy mashqlarning o'rni" nomli dissertatsiya ishlari bilan ilm-fanda o'zlarining munosib o'rniga ega bo'ldi. [5;70-85-b]

Samarqand qishloq xo'jaligi instituti olimalaridan Narziyeva Salixa Xayriyevna "Ekish usullari va o'g'itlash me'yorining kartoshka ekinini o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri" mavzusida ilmiy ishi, Xodjayeva Nasiba Jurakulovna "Ayrim mahalliy va introduksiyaalanayotgan bug'doy navlarining suv rejimi va qurg'oqchilikka chidamliligi" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlari qishloq xo'jalik sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Samarqand davlat me'morchilik-qurilish institutida Abdukadirova Xolida Abduxamidovna "Qurilish tashkilotlarining ijtimoiy rivojlanish rejalari va jamoalarining samaradorligini baholash usullari", Sodiqova Sayyora Oripovna "Qurilish materiallari va

buyumlari” mutaxassisligi bo'yicha dotsent unvoniga ega bo'lgan, Ganiyeva Gulsara Inoyatullayevna 1980-yili “Tugallanmagan qurilishni qisqartirishning tashkiliy-iqtisodiy muammolari” mavzusidagi ilmiy ishi bilan qurilish sohasida o'z munosib o'rniga ega bo'lishgan.[5; 86-92-b]

KPSS hukmronligi davrida O'zbekiston qishloq xo'jaligida va xizmat ko'rsatish sohasida — qishloq va shaharda band bo'lganlar o'qimishli o'zbek ayollari o'zbek erkaklarinikidan yomonroq ahvolda edi. Aminova ta'kidlaganidek 1954-yilda qariyb 400 nafar o'zbek ayol tibbiyot shifokorlari ish bilan ta'minlangan, 13 nafar ayol akademik fan doktorlari mavjud edi. O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida 400 ga yaqin xotin-qizlar fan yo'nalishida tahsil olmoqda Shunga qaramay, “an'anaviy madaniy omillar” tufayli va ishga joylashish uchun to'siqlar mavjud bo'lgan. 1979-yilga kelib esa vaziyat birmuncha o'zgara boshladi, qishloq ayollari erkaklarga qaraganda uchdan bir baravar ortiq miqdorda ilg'or ta'limni tugata boshlagan. Ayol aspirantlar intilish va qat'iyat bilan professional va texnik bilimga ega bo'ldi. [6;15-b]

Fanlar Akademiyasining 3600 dan ziyod ilmiy xodimlarining 5 foizi xotin-qizlardan iborat.1969-yilda respublikada 27 nafar xotin-qiz fan doktori, 1096 nafar fan nomzodi bo'lsa, 1977-yilda esa yuzga yaqin ayol fan doktori va 2700 nafar fan nomzodlariga ega edi.

80-yillar oxiriga kelib fan sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xotin-qizlar ulushi anchagina o'sgan. 1987-yilda fan sohasida ishlayotgan 40 mingga yaqin ilmiy xodimning 14 ming nafarini ayollar tashkil qilgan. Bularning 130 nafari fan doktori, 81 nafari professor, 1204 nafari dotsent, 4 ming nafari fan nomzodi, 7 nafari O'z RFA akademigi va muxbir a'zosi edi.

Respublika madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasining ba'zi tarmoqlarida xotin-qizlar erkaklar salmog'iga nisbatan ko'pchilikni tashki qilgan. Xususan, 1971yilda sog'liqni saqlash sohasida 75 foizni, maorif sohasida 54 foizni; 1975-yilga kelib bu ko'rsatkich 73,3 hamda 53,5 foizga yetgan. 1986-yilda respublikada 706ming nafar oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis xotin-qiz mehnat qilardi. Bu 1960-yilga nisbatan 600 ming kishiga ko'pdir.

1988-yil O'zbekistonda oliy o'quv yurtlarida talabalar o'rtasida xotin-qizlar soni 46 foizni, o'rta maxsus o'quv yurtlarida 52 foizni tashkil etdi. Ularning soni 1960-yildagi 107,2 ming kishidan 1987-yildagi 816,0 ming kishiga yoki 7,6 barobarga oshdi. Oliy va o'rta maxsus ma'lumotli xotin-qizlar sonining ko'payishi bilan oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislarning umumiy sonida ayollarning salmog'i 1960-yildagi 45 foizdan 1988-yildagi 50 foizga yetdi.[10;5-b]

**Xulosa.** Shunday qilib, 80-yillarga kelib mehnatni intellektuallashtirishning umumiy jarayoni aqliy mehnat bilan band bo'lgan xotin-qizlar soni rolining oshishi kuzatildi. Bu holat o'z navbatida ayollarning respublika rivojiga qo'shgan hissasini oshirib bordi. Sovet hokimiyatining xotin-qizlarga munosabat masalasida olib borgan mustamlakachilik siyosati natijasida ayollarni oli va o'rta maxsus ta'lim tizimiga jalb etish miqdoriy ko'rsatkichlari o'sishiga erishildi. Ammo, Sovet hukumatining mahalliy millat xotin-qizlarini ta'lim va ilm-fanga keng jalb qilishdan maqsad kommunistik mafkura rahnamoligida sovet hokimiyatining siyosatini qo'llab quvvatlashdan iborat xayrixohlarni tarbiyalashga qaratilgan edi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'qituvchilar gazetasi, 1958, 7-mart
2. Qizil bayroq. 1960 y, 8-mart
3. Samarqand viloyat arxivi, 975-fond, 10-royxat, 11-ish, 21-varaq.
4. Samarqand viloyat hokimligi arxivi, 31-fond, ro'yxat-2, 134-ish, 8-varaq

5. Samarqandlik olimlar: Mustaqillik yillarida, Uslubiy qo'llanma. Samarqand.2000. 5-21 varaqlar
6. Sevketa Akyildiz, An introductory history of soviet uzbek academics 1924-1960, Polyvicia-The SOAS journal of graduate reasercher, p 15
7. Ulug' usoz siymosi: O'ktam Karimovna Vaxobovnanini xotirlab. Samarqand.2021.Bet.8
8. СамДУ илмий ишлари библиографик тўплами.-Самарқанд,1964. Б.18
9. Самаркандский государственный университет. Краткий исторический очерк (1927-1977гг). Ташкент, 1976.-С.51
10. Женщины советского Узбекистана. Ташкент. 1987. С.5

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).